

**O'YIN - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YETAKCHI
FAOLIYATI SIFATIDA**

Panjiyeva Aziza Nomoz qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

gmail.azizapanjiyeva@gmail.com

Telefon raqam: 996870731

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Jo'ramurodova Sabrina Baxtiyor qizi

joramurodovasabrina@gmail.com

Telefon raqam: 97 410 24 06

***Annotatsiya :** Ushbu tezisda bog'cha yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining ahamiyati, bu faoliyat bolalarning turli ehtiyojlarini hal qilishi, garmonik rivojlanish, rasm chizish va musiqa san'atining tutgan o'rni hamda bog'cha yoshi bolalardagi ijodiy-xayoliy yaratuvchanlik haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** motivatsiya, ijodiy va syujetli o'yinlar, o'xshatma, afsonaviy obraz, tarbiya quroli, predmetli o'yinlar, yetakchilik, ijtimoiy tajriba*

***Аннотация:** В данной дипломной работе даются сведения о значении игровой деятельности у детей дошкольного возраста, о том, как эта деятельность решает различные потребности детей, о роли гармоничного развития, рисования и музыки, творческого и образного творчества у детей детского сада. возраст.*

***Ключевые слова:** мотивация, творчески-сюжетные игры, аналогия, мифический образ, образовательное средство, предметные игры, лидерство, социальный опыт.*

***Abstract:** This thesis provides information on the importance of play activities in preschool children, the ability of this activity to meet the various needs of children, harmonious development, the role of drawing and music, and creative and imaginative creativity in preschool children.*

Keywords: *motivation, creative and plot games, analogy, mythical image, educational tool, subject games, leadership, social experience*

Assosiy qism. Shaxsning rivojlanishida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri deb belgilandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi juda tez o'zgarishini hisobga olgan holda maktabgacha yosh davrini 3 davrga bo'lib o'rganamiz.

- 1) Kichik maktabgacha davr - 3-4 yosh;
- 2) O'rta maktabgacha davr - 4-5 yosh;
- 3) Katta maktabgacha davr - 6-7 yosh;

Bola psixologiyasi rivojlanishi mobaynida insoniyat yaratgan barcha yutuqlariga o'z munosabatini ko'rsata boshlaydi va ularni o'zlashtirib egallab boradi. Bola o'zi egallayotgan predmet va voqea-hodisalarning xatti-harakatini, tilini va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'zlashtirishda hamda kattalarning yordami bilan bola o'z qobiliyatlarini va nutqini shakllantirishda bevosita kattalarning yordami ya'ni berayotgan motivatsiyasi, qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etadi. Mashhur rus pedagogi Lesgaft aynan shu yoshda (bog'cha yoshida) bolalarda xarakter xususiyatlari shakllanishi haqida fikr aytib o'tgan. Bog'cha yoshidagi bolalarda ayniqsa kimgadir taqlid qilish xususiyati yuqori shakllangan bo'ladi. Bolalar bu payt o'ta harakatchan bo'ladi va biror faoliyatni qayta bajarishga zerikib qoladi, turlilikni yoqtirishadi, ya'ni ularda qiziqish yuqori bo'ladi, shuning natijasida bolalarda diqqat va iroda kabi muhim xususiyatlari shakllanadi va mustahkamlanib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola o'zini kattalar kabi tik tutib, nutqini shakllantirgan vaqtda kishilar o'rtasidagi munosabatlar va axloqiy me'yorlarni anglay boshlaydi va kattalar bilan muloqot qilishga intiladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari insonlarning faol ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Agar ota-onalar biror o'yin bilan mashg'ul bo'lgan vaqtda ozgina e'tibor berib kuzatishsa, o'yin davomida bolalarning xarakter xususiyatlari, nimaga qiziqishlari, qobiliyat va iste'dodlari

ko'rinadi,shu sababdan individual holatda o'rganish ular uchun judayam qulay.Bolalar o'sha o'yinlar davomida analogik tarzda o'xshatmalar qiladiturli xayoliy narsalarni o'ylab topa boshlaydi,masalan, texnika taraqqiyoti zamonida yashayotganligimiz uchun ular ko'pincha uchar ot,odam mashina robotlar . Odatda kichik maktabgacha yosh davri bolalari yolg'iz o'zi o'yin bilan band bo'lishni afzal bilishadi, 4-5 yoshlarga kelib esa asta-sekin jamoaviy o'yinlarni o'ynay boshlaydi. Kichik maktabgacha yosh davri bolalari quyidagi o'yin turlarini o'ynaydi:predmetli o'yinlar,rolli o'yinlar,obrazli-syujetli o'yinlar, muloqot o'yinlari,musobaqa o'yinlari va hokazo.Misol uchun musobaqa o'yinlarini o'ynagan bolalarda o'yinda g'alaba qozonish motivi shakllanadi. Katta bog'cha yoshdagi bolalar ,asosan, syujetli-rolli o'yinlarni ko'proq o'ynaydi,sababi bu o'yinlar xilma-xilligi va mavzusining boyligi bilan ajralib turadi hamda bolalarda qiziqish uyg'ota oladi.Bu o'yinlar bolalarda yetakchilik , tashkilotchilik ko'nikma va malakalarining rivojlanishida , sardorlik hissining shakllanishida yordam beradi.Umuman olganda bu bolalar o'zlarining qobilyatlari va iste'dodlarini o'yin orqali aks ettiradilar,ya'ni ba'zi bolalar rasm chizishga ba'zilari esa musiqa san'atiga ,qo'shiq aytishga qiziqadi.Katta bog'cha yoshida bolada konstruktorlik o'yinlaridan mehnat faoliyatiga o'tadi,sodda mehnat ko'nikma va malakalarni egallab boshlaydi .Musiqa badiiy-ijodning bir turi hisoblanadi.Musiqa orqali bolalar qo'shiq aytishga va musiqa ohangiga mos bir maromda harakat qilishni o'rganadilar.

Xulosa:

Xulosa o'rnida yana shuni aytib o'tish kerakki, bolalarga turli xil o'yinchoqlar olib berayotganimizda ham e'tiborli bo'lishimiz kerak,ya'ni ularning yoshlariga mos bo'lishi, ularning qay darajada rivojlanayotganini va ularning nimalarga ishtiyoqi borligini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.Kichik maktab yoshidagi bolalar deyarli hali ranglarni ajrata olmaydi,shakllarni bilmaydi,ya'ni ular hali ko'p narsalarni idrok qilisholmaydi,shuning uchun ham bunday davr bolalariga xilma-xil shaklli o'yinchoqlar berib ovutish ularning aqliy ham hissiy,axloqiy rivojlanishiga yordam beradi.Bola o'yin faoliyati jarayonida odamlarning ijtimoiy tajribasini o'rganadi, malakaga ega bo'ladi ,bu tajribalarni

egallash uchun esa inson dastlab yetarli nutqni egallagan bo'lishi, o'quv-malakalarga, sodda va oddiy faktlarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bola bularning barchasiga faqatgina o'yin orqali erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhammedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyeva, M. Djumabayeva " Yosh va pedagogik psixologiya "
2. E. G'oziyev " Umumiy psixologiya ".